



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

*Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi
asosida shakllantirildi*



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentyabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 274-son qaroriga muvofiq korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra)
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

20 082

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

19 209

Yangi tashkil etilgan korxonalar


1 491

(2020- yil yanvar-may oylarida)

Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda davogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar yillar kesimida soni, birlikda (1- iyun holatiga ko'ra)




Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'nga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
tijorat korxonalarini soni, birlikda**
(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra)




**Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning
tumanlar bo'yicha soni**
(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda, Nukus shahri (30,0 %), To'rtko'l (10,4 %), Beruniy (8,3 %), Amudaryo (7,3 %), Ellikqal'a (6,2 %), Qo'ng'irot (5,4 %), Xo'jayli (4,9 %), Nukus (4,6 %), Chimboy (3,7 %), Taxiatosh (3,2 %), Qorao'zak (3,0 %), Kegeyli (2,7 %), Qanliko'l (2,6 %), Shumanay (2,5 %), Mo'ynoq (2,4 %), Tuxtako'pir (1,9 %), Bo'zatov (0,9 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni (1-iyun holatiga ko'ra)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1-iyun holatiga ko'ra)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni, birlikda

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra)



Aksiyadorlik jamiyat:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat - aksiyadorlik jamiyat hisoblanadi; - aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyatni ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(yanvar-may oylarida, birlikda)



iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni (2020- yil yanvar-may oylarida)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020- yil yanvar-may oylarida, umumiy sonidagi ulushi)



2020- yilning yanvar-may oylarida 1 491 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 1 049 ta, xususiy korxonalar - 146 ta, oilaviy korxonalar - 201 ta, muassasalar - 39 ta va boshqalar - 56 tani tashkil etdi.

Oilaviy korxonalar soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- iyun holatiga ko'ra 1 257 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 362 taga yoki 40,4 % oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 193 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 316 taga yoki 36,0 % oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 201 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17 taga yoki 7,8 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.


Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra 162 tani tashkil etib, ulardan 159 tasi yoki 98,2 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 26 taga yoki 19,6 % oshganligin ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-may oylarida 6 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-may oylarida, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni
(1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	58	70	90	133	159
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	13	12	23	34	40
Sanoat	32	37	46	61	83
Qurilish	2	3	4	3	5
Savdo	8	13	13	22	18
Tashish va saqlash				2	1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1	2	1	3	4
Axborot va aloqa					
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	1	1	3	3
Boshqa turlar	1	2	2	5	5


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni
(1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar sonining asosiy qismi Nukus shahri (5 700 ta), To'rtko'l (1 980 ta), Beruniy (1 608 ta), Amudaryo (1 387 ta) va Ellikqal'a (1 221 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


**Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Qoraqalpog'iston Respublikasi	159	91	68
Amudaryo	6	2	4
Beruniy	10	3	7
Bo'zatov	2	1	1
Qorao'zak	11	8	3
Kegeyli	7	5	2
Qo'ng'irot	7	5	2
Qanliko'l	6	3	3
Mo'ynoq	25	19	6
Nukus	10	8	2
Taxiatosh	11	3	8
Taxtako'pir	6	4	2
To'rtko'l	4	3	1
Xo'jayli	4	1	3
Chimboy	5	3	2
Shumanay	5	2	3
Ellikqal'a	6	4	2
Nukus sh.	34	17	17


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Nukus shahrida 34 ta (umumiyligi miqdorida ulushi 21,4 %), Mo'ynoq 25 ta (15,7 %), Qorao'zak va Taxiatosh 11 tadan (6,9 %) hamda Beruniy va Nukus tumanlarida 10 tadan (6,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, To'rtko'l va Xo'jayli 4 tadan (2,5 %) hamda Chimboy va Shumanay 5 tadan (3,1 %) tumanlari ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni (2020- yil yanvar-may oylarida, birlikda)


2020- yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda, ularning Nukus shahrida (22,0 %), To'rtko'l (10,8 %), Ellikqal'a (7,1 %), Beruniy (7,0 %), Nukus (6,2 %), Amudaryo (6,2 %), Qo'ng'iroq (5,7 %), Xo'jayli (5,0 %), Mo'ynoq (4,4 %), Taxiatosh (4,0 %), Bo'zatov (4,0%), Shumanay (3,4 %), Chimboy (3,3 %), Kegeyli (3,1 %), Qanliko'l (2,9 %), Qorao'zak (2,7 %), Taxtako'pir (2,2 %) tumanlar ulushiga ega.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimida soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Tumanlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi
(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)




2017- 2021 yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining tumanlar bo'yicha soni (2020-yilning yanvar-may oylarida, birlikda)



Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (2020-yilning yanvar-may oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnomasi tusidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayatganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni yuritish
bo'limi.
Tel.:61 224-92-09**